

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022 **2022**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

31

YOSHDA

1 SENTYABR – MUSTAQILLIK KUNI

**SENTYABR****№44**

CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uzwww.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
17-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-17**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-17**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 44-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 сентябрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 27 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

1. Ruzmatov Yunus, Jumaniyozova Sadoqat	
ELEKTRON AXBOROT RESURSLARIDAN KOMPYUTER TARMOQLARI ORQALI	
FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	7
2. Bo'ronova Vasila Shodmonovna	
INFORMATIKA FANNINI FANLARARO INTEGRATSİYALAB O'QITISH	
USLUBIYOTI.....	9
3. Ulug'ho'ja Ismanov Zokirjonovich	
MATEMATIKA DARSALARIDA MATEMATIK HUKM	11
4. Samsaqova Nodira Karimovna	
KOMPYUTERDA TAQDIMOT YARATISH DASTURLARI IMKONIYATLARI VA	
INTERFEYSI.....	13
5. Zulhumor Yusupova	
MATEMATIKA FANIDA HAQIYAIY SONLARNI ISHLATILISHI	15
6. Xayitboyeva Shirin	
ISBOTLASHGA DOIR OLIMPIYADA MASALALAR.....	17
7. A'zamov Azamat Mamarajabovich	
INFORMATIKA DARSALARIDA GRAFIKA QISMINI SHAKLLANTIRISH.....	19
8. Nurjabova Dilafruz Shukrullaevna	
EQUATIONS OF HEMODYNAMICS IN THE QUASI-ONE-DIMENSIONAL	
APPROXIMATION FOR BLOOD VESSEL.....	21



ФИЗИКА-МАТЕМАТИКА ФАНЛАРИ ЮТУҚЛАРИ

ELEKTRON AXBOROT RESURSLARIDAN KOMPYUTER TARMOQLARI ORQALI FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Ruzmatov Yunus, Xorazm viloyati

Urganch tumani 39-maktab informatika fani o'qituvchisi

Jumaniyozova Sadoqat, Xorazm viloyati

Urganch tumani 39-maktab informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada ta'lif tizimida elektron axborot resurslaridan foydalanishning ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

Kalit so'zlari: axborot, elektron resurslar, dasturiy tizim, internet.

Jamiyatning axborotlashuvida, ta'lif jarayonini avtomatlashtirish, zamonaviy elektron axborot resurslari bilan boyitish va bu axborotlarni foydalanuvchilarga qulay hamda tez taqdim qilish kun tartibidagi hal qilinishi lozim bo'lgan dolzarb masalalardan biriga aylandi. Bu muammoni hal qilish, ular ish jarayonini avtomatlashtirish hamda muvofiq dasturiy tiziqlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Hozirgi kunda elektron axborot resurslaridan kompyuter tarmoqlari orqali foydalanish eng qulay hisoblanadi. Elektron axborot resursi qanday shaklda tayyorlansa, uni tezda kompyuter tarmog'i orqali olish mumkin bo'ladi. Asosiy maqsad, elektron axborot resurslarini kompyuter tarmog'ida foydalanish uchun qulay shaklda tayyorlashdir. Internet tarmog'ida ming-minglab axborot resurslari mavjud. Ular turli xil formatlarda tayyorlangan. Ba'zi bir axborot resurslarini tez olamiz, ba'zilarini olish uchun juda ko'p vaqt sarflaymiz. Shu sababli, Internet tarmog'ida axborot resurslarining maqsadi va formatlarini tahlil qilgan holda elektron axborot resurslarini kompyuter tarmog'iga joylashtirish uchun o'quvchining ijodkorligini ta'minlashga yo'naltirilgan usullarini yaratish vazifasini amalga oshirish lozim bo'ladi.

Internet tizimida axborotlarni yaratish, saqlash va uzatish bevosita kompyuter orqali amalga oshiriladi. Buning uchun turli amaliy dasturlardan foydalaniladi. Kompyuterning dasturiy ta'minoti orasida eng ko'p qo'llaniladigani amaliy dasturiy ta'minotdir. Jumladan, multimedia dasturiy vositalari dasturiy mahsulotlarning eng ko'p ommaviylashgan sinfiga aylandi. U ma'lumotlarni qayta ishslash muhitining o'zgarishi, ma'lumotlarning tarmoqli texnologiyasining rivojlanishi natijasida shakllandi.

Taqdim qilinayotgan elektron axborot resurslarini tahlil qiladigan bo'lsak, ular matn, jadval, grafik, rasmlar, audio, video yoki biror bir amaliy dasturiy mahsulotdan iborat ekanligini ko'ramiz.

Elektron axborot resurslarini foydalanuvchilarga tez va qulay tarzda taqdim qilishni amalga oshiruvchi dasturiy tizimning mukammal ishlashi uchun ikkita muammoni xal qilish lozim bo'ladi:

1. Tizim ma'lumotlar bazasini shakllantirish.
2. Tizim taqdim qiladigan elektron axborot resurslarini shakllantirish.

Tizim ma'lumotlar bazasini shakllantirish. Tizimning ma'lumotlar bazasiga, foydalanuvchilarga taqdim qilinadigan elektron axborot resurslari haqidagi barcha ma'lumotlarni talab darajasida kiritish kerak. Buning uchun ma'lumotlar bazasida jadvallari to'ldirib borilishi lozim. Natijada foydalanuvchilarga mavjud bo'lgan elektron axborot resurslari haqida axborot beriladi, ularni izlab topish yengilashadi va uni chaqirib olish osonlashadi. Tizim, tizimga kiritilgan barcha elektron axborot resurslari haqida ma'lumotlar orqali foydalanuvchilarga, ularni namoyon qilib berish va tezda kerakli ma'lumotlarni izlab topishni o'z zimmasiga oladi. Ammo, elektron axborot resurslari faylini tezda foydalanuvchilarga yetkazib berish boshqa muammo hisoblanadi.

Tizim taqdim qiladigan elektron axborot resurslarini shakllantirish. Elektron axborot resurslari fayli, fayllar saqlanishi mo'ljalangan kompyuterda, biror nom bilan kataloglarda saqlanadi. Fayllar avtonom holda emas, balki kompyuter tarmog'i orqali foydalanish uchun tayyorlanishi lozim

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lif tizimini kompyuterlashtirish, yangi zamonaviy



darsliklarni yaratish, “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mukammal o‘zlashtirishga hamda ta’lim tizimida elektron resurslardan foydalanishga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ishmuhammedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: 2016
2. Aripov M., Ahmedov A., Ikromova H va boshq. Axborot texnologiyalari: O‘quv qo‘ll. – T.: 2003
3. Ikromova H.Z. Inson - kompyuter - kelajak. – T.: 1991



INFORMATIKA FANINI FANLARARO INTEGRATSIYALAB O'QITISH USLUBIYOTI

Bo'ronova Vasila Shodmonovna

Navoiy viloyati Nurota tumani

Xalq ta'limi bo'limiga qarashli

34-sonli umumta'lismaktabi

Informatika fani o'qituvchisi

Telefon: +998934368899

Elektron pochta: boronovavasila@mail.ru


Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lismaktablarida o'quvchilarning informatika fanini boshqa fanlar bilan bog'liqligini, hamda o'quvchilarda aniq va tabiiy fanlarga qiziqishini ortishiga qaratilgan.

Kalit so'zlar. Informatika, matematika, fizika, kimyo.

Bugungi kunda axborot texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining turli sohalarida jadal kirib bormoqda va ularni rivojlantirish uchun xizmat qilmoqda. Bunday texnologiyalarning ta'siri odamlarning turmush tarzi, ta'limi va ishida o'z ijtimoiy muammolarining hal etilishi uchun muhim omilga aylandi. Hozirgi davrda mamlakatimiz ta'lismohoralarida amalga oshirilayotgan islohotlar yuksak bilimli, barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, bu borada axborot kommunikatsion texnologiyalarning o'rni katta.

Yosh avlodni kuchli, bilimli, intellektual salohiyati, qolaversa vatanparvar etib tarbiyalash uchun ta'lismohoralariga yangicha yondashish, uni singdirishda va amalga oshirishda yangicha uslub va mazmun, shakl hamda vositalaridan, ya'ni manbalaridan foydalanish taqozo etiladi. Buning uchun eskicha ishlash bilan yangi, aynan ana shu maqsadlarni ro'yobga chiqarishga e'tibor qaratilib davlatimiz tomonidan bir qator hujjatlar qabul qilindi.

Informatika shunday fanki, uni barcha fanlarga tatbiq etish mumkin. Nafaqat mumkin, balki barcha fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan, zamonaqiy kompyuter texnikasidan foydalanish zamon talabidir. Hozirda deyarli barcha fanlardan elektron darsliklar, turli tuman elektron qo'llanmalar, o'qituvchi-o'rgatuvchi dasturiy vositalar yaratilgan. Ulardan foydalanib samarali dars tashkil etish mumkin. Lekin darslarda kompyuterning standart dasturiy vositalari offis dasturlar paketining o'zidan ham unumli foydalanish mumkin.



1-sxema

Masalan, yuqoridaq 1-sxemadagi ko'rsatilgan kabi tabiiy va aniq fanlardan misol va masalalar yechishda, natijalarini jadval shaklida tasvirlashda Excel dasturidan foydalanish faqatgina vaqtini tejab qolmay, o'quvchilarda fanga qiziqishni ham orttiradi. Excel dasturi tarkibida dunyo xaritasi, undagi davlatlar haqida ma'lumotlar kiritilgan. Bularidan geografiya fanida unumli foydalanish mumkin. Matn muharrirlari (MS Word), taqdimot yaratish dasturlaridan (Power Point) barcha fanlarda foydalanish, darsni qiziqarli o'tish imkonini beradi. Informatika fani yutuqlaridan xalq xo'jaligining ham barcha sohalarida foydalanib kelinmoqda. Ko'p holatda umumiyligida o'rta ta'lismaktabi o'quvchilari boshlang'ich sinfni tugatgandan keyin 5-sinfga qadam qo'yari ekan, darsliklarda o'zgarishlarni ko'rib, qiyinchilikka uchrashlari mumkin. Yoki yuqori sinf



o'quvchilarining fanlardagi murakkablikka uchrashlari tabiiy hol. Bunday fanlar tabiiy fanlardan matematika, fizika fanlari hisoblanadi. Bu qiyinchilikni hamda fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada rivojlantirish uchun: exsel dasturi orqali, hamda hisoblovchi dasturlarni yaratish orqali rivojlantirishga erishish mumkin.

Xulosa o'rnila informatika fanini inregratsion yondashib o'qitilsa umumta'lim maktab o'quvchilarining bilim darajasini yanada oshirishga turtki bo'lishiga hissa qo'shadi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Masharipova-Nigora. Posted on July 22nd, 2017 in informatika fanini o'qitishda noan'anaviy usullar va sinfdan tashqari ishlarning ahamiyati.

2. Ibragimova Nigora, Hamidova Sarvinoz, "Pedagogik jarayonlarni amalga oshirishda axborot kommunikatsion texnologiyalarining o'rni", astronomiya fanini o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish metodikasi: muammo va yechimlar Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (2022- yil 17- may).



MATEMATIKA DARSLARIDA MATEMATIK HUKM

Ulug'ho'ja Ismanov Zokirjonovich

Namangan viloyati Norin tuman
19-maktab matematika fani o'qituvchisi
907507674 ismanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqalimumumta'lim maktablarda matematik hukm, matematik fikrlarni tasdiqlash yoki inkor qilish hukm deyiladi va ushbu maqolada hukm haqida keng ma'lumot berilgan, umumta'lim maktablarda matematika fani o'qituvchilari metodik qo'llanma sifatida tavsija etiladi.

Kalit so'zlar: matematik hukm, mantiqiy bilish, tushunchalar, yechim, ko'pburchak, inkor qilish, tasdiqlash, uchunchi tomon, o'zgarmas son.

Matematik hukm mantiqiy bilish formalaridan biri bo'lib, unga quyidagicha ta'rif berilgan: «*Tushunchalar asosida hosil qilingan matematik fikrni tasdiqlash yoki inkor qilishga matematik hukm deyiladi*». Bu ta'rifdan ko'rinadiki, hukmnning xarakterli xossasi aytilgan matematik fikrnинг to'g'riligini tasdiqlash yoki noto'g'riligini inkor qilishdan iborat ekan. Matematik tushunchalarni tasdiqlash ma'nosidagi hukmga quyidagicha misollar keltirish mumkin: ,

1. Paralellogrammning qarama-qarshi tomonlari o'zaro parallel va teng.
2. Har qanday turdagи uchburchak uchta uchga ega.
3. Uchburchak ichki burchaklarning yig'indisi 180° ga teng.
4. Ko'pburchak ichki burchaklarining yig'indisi $2d(n-2)$ ga teng. Matematik tushunchalarni inkor qilish m a'nosidagi hukmlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin:

1. Har qanday uchburchakda ikki tomon uzunliklarining yig'indisi uchinchi tomon uzunligidan kichik emas.
2. Piramidadagi uch yoqli burchaklarning yig'indisi hech qachon o'zgarmas son bo'la olmaydi.
3. Har qanday to'rtburchakda ichki burchaklar yig'indisi 360° dankatta emas. Bundan kelib chiqadiki, har qanday matematik gap ham matematik hukm bo'la olmas ekan. Masalan, «*ABCD* to'rtburchak paralellogramm bo'la oladimi?» «*Ixtiyoriy uchburchak ichki burchaklarning yig'indisi 180° ga teng bo'la oladimi?*» Keltirilgan ikkala misolda ham inkor va tasdiq ma'nosi yo'q, shuning uchun ular matematik hukmga misol bo'la olmaydi. Matematik hukm uch xil bo'ladi:

1. Birlik hukm. 2. Xususiy hukm. 3. Umumiyy hukm. Matematikani o'qitish jarayonida yuqorida hukmlarning uchala turi uzviy aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda, birlik hukmnинг natijasi sifatida xususiy hukm hosil qilinadi, xususiy hukmnинг natijasi sifatida esa umumiyy hukm hosil qilinadi. Fikrlarimizning dalili sifatida quyidagi misolni ko'raylik.

- 1) Birlik hukmlar: a) Aylana to'g'ri chiziq bilan faqat ikki nuqtada kesishadi.
- b) Ellips to'g'ri chiziq bilan faqat ikki nuqtada kesishadi.
- d) Giperbola to'g'ri chiziq bilan faqat ikki nuqtada kesishadi.
- c) Parabola to'g'ri chiziq bilan faqat ikki nuqtada kesishadi.
- 2) Xususiy hukm: «*Aylana, ellips, giperbola va parabolalar ikkinchi tartibli egri chiziqlar hosil qiladi*». Yuqorida birlik va xususiy hukmlarga asoslanib, quyidagi umumiyy hukmni hosil qilamiz.

3) Umumiyy hukm: «*Ikkinchи tartibli egri chiziqlar to'g'ri chiziq bilan faqat ikki nuqtada kesishadi*». Matematik xulosa Matematik xulosa ham mantiqiy tafakkur qilish shakllaridan biri. Matematik xulosaga bunday ta'rif berilgan:

«*Ikkita qat'iy hukmdan hosil qilingan uchinchi natijaviy hukmga xulosa deyiladi*». Misol. 1-hukm: to'rtburchakning diagonali uni ikkita uchburchakka ajratadi.
2-hukm: har bir uchburchak ichki burchaklarining yig'indisi 180° ga teng.
3-hukm: demak, to'rtburchak ichki burchaklarining yig'indisi 360° ga teng (xulosa bo'ladi). Maktab matematika kursida xulosalarning uchta turi, ya'ni induktiv, deduktiv va analogik xulosalar o'rganiladi. Ta'rif. *Ayrim yoki xususuy ma'lumotlarga tayanib umumiyy xulosa chiqamhni induksiya deyiladi*. Indukslya uch xil bo'ladi: chala induksiya, to 'la induksiya va matematik induksiya. Chala induksiya metodi orqali chiqarilgan xulosa ko'pgina hollarda to'g'ri, ammo ayrim hollarda noto'g'ri bo'ladi.
1 -misol. Fermaning mashhur teoremasi bo'yicha ($2^n + 1$) ko'-rinishdagi sonlar $n = [0, 1, 2, 3, 4, \dots]$ bo'lganda 3, 5, 17, 257, 65537, ... kabi tub sonlardan iborat edi. Shuning uchun Ferma umumiyy



holda ko'rinishdagi barcha sonlar n ning ixtiyoriy qiymatlarida ham tub sonlar bo'ladi, deb umumiy xulosa chiqargan.

Foydalaniman adabiyotlar

1. Matematika o'qitish metodikasi. S Alixonov Toshkent 2011
2. Matematika o'qitish metodikasi M.E Jumaboyev 2004
3. wwwzhiyonet.



KOMPYUTERDA TAQDIMOT YARATISH DASTURLARI IMKONIYATLARI VA INTERFEYSI

Samsaqova Nodira Karimovna

Toshkent viloyati Zangiota tumani

36 – maktab informatika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada kompyuterda taqdimot yaratish dasturlari imkoniyatlari va interfeysi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Microsoft power point, pptx, ppt, dastur interfeysi, taqdimot.

Albatta, bugungi kunda eng ommabop dasturlardan biri bu paketga kiritilgan Microsoft Power Point dasturidir. Microsoft ofis. Ilovaning bugungi kunda eng so'nggi versiyasi 2016 yil. Dastur barcha turdag'i vositalardan foydalangan holda PPTX va PPT formatlarini yaratishga qodir.

Dastur interfeysi intuitiv asboblar paneli bo'lib, u bajarilishi mumkin bo'lgan operatsiyalar toifalari bo'yicha bir nechta yorliqlarga bo'linadi. PPTX fayli tizimli ravishda bir nechta slaydlardan iborat bo'lib, ular orasidagi almashish namoyish davomida ketma-ket amalga oshiriladi. Jadvallar, rasmlar, matn (jumladan, uch o'lchamli matn), video fayllarni slaydlarga import qilish mumkin. Dastur musiqa qo'shish, barcha turdag'i o'tish effektlarini yaratish va elementni ko'rsatish vaqtini boshqarish imkonini beradi.

Ba'zan ma'lumotni vizual shaklda (rasmlar, diagrammalar yoki jadvallar bilan) ommaviy ravishda taqdim etish kerak. Bu biznes g'oyasi bo'lgan taqdimot, o'quv seminari yoki har bir kishi ushbu muammoni hal qila oladigan Power Point dasturi bo'lishi mumkin. Siz slaydlar yordamida o'zingizning taqdimotingizni qanday qilishni o'rganasiz.

Power Point-ni qayerdan topish va qanday yoqish mumkin?

Avvalo, dasturni ishga tushirishingiz kerak. O'rnatilganiga qarab operatsion tizim u kichkina turli joylar. Masalan, Windows 7 da uni pastki chap burchakdagi yumaloq Windows logotipi belgisini bosish orqali topish kifoya. Umuman olganda, u "Barcha dasturlar" - "Microsoft Office" bo'limida joylashgan.

O'z ishingizni yaratish unchalik qiyin emas. Buning uchun quyidagi amallarni bajaring.

1. "Dizayn" yorlig'iда taqdimot shablonini tanlang. Siz uni boshqa ishdan import qilishingiz mumkin.

2. "Rang" toifasida sevimli soyalaringizni tanlang, asosiy shrift uslubini o'rnating. Fon uslubini Fon uslublari bo'limida o'zgartirishingiz mumkin.

3. Agar siz ishingizni soddalashtirmoqchi bo'lsangiz va disk maydonini biroz tejashni istasangiz, "Ko'rish" bo'limini, keyin esa "Slide Master" ni tanlang. sizning oldingizda tayyor shablon, unda ba'zi o'zgarishlar qilish kifoya.

4. To'liq boshqa slayd tuzilishi kerak bo'ladi. Siz "Uy" bo'limida bo'lish va "Tartib" belgisini tanlash orqali o'zgartirishlar kiritishingiz mumkin.

To'ldirish:

1. Namunaviy sarlavha yoki Namuna matn maydoniga istalgan matnni kiritishingiz mumkin. Uning o'lchami, uslubi, rangi va boshqa parametrlarini har doim "Uy" bo'limidan o'zgartirish mumkin.

2. Slaydga rasm qo'shish uchun "Qo'shish" bo'limiga o'ting, so'ngra kompyuteringizdan rasmni tanlang.

3. Agar siz taqdimotingizga diagramma qo'shishingiz kerak bo'lsa, siz "Aqli san'at" bo'limini tanlashingiz kerak, undan ierarxiya, ro'yxat, tsikl, matritsa yoki piramida ko'rinishidagi turli xil andozalar kiritiladi. Ularning rangi har doim o'zgarishi mumkin. Buni amalga oshirish uchun "Dizayner" bo'limida siz "Ranglarni o'zgartirish" tugmasini bosishingiz kerak.

4. "Qo'shish" bo'limidan mos keladigan belgini bosish orqali kerakli parametr jadvalini qo'shish oson. Uning dizayni "Konstruktor" bo'limida o'zgartirilishi mumkin.

Slaydlar yordamida taqdimotni qanday qilish kerak? 3-qism: animatsiya

Ishingizni jonli tarzda qilishni xohlaysizmi? Power Point dasturi bu istakni amalga oshiradi! Samarali paydo bo'ladigan fotosuratlar, matnlar yoki boshqa elementlar taqdimotni bezatadi, tomoshabinlar va tinglovchilarining zerikishiga yo'l qo'ymaydi!

1. Agar siz butun slaydni fon bilan birga jonlantirmoqchi bo'lsangiz, u holda "Animatsiya"



yorlig'ini bosing va taklif qilingan variantlardan o'zingizga yoqqanini tanlang.

2. Alovida obyektni jonlantirish uchun uni tanlab, “Animatsiya sozlamalari” tugmasini bosish kerak. O'ng tomonda paydo bo'lgan maydonda "Effekt qo'shish" bandini tanlang va kerakli parametrlarni sozlang.

O'zingizga yoqmagan slaydlarni o'chirishga shoshilmang. Agar siz ularni olib tashlamoqchi bo'lsangiz, unda quyidagilarni qilish yaxshiroqdir: keraksiz qatlamni o'ng tugmasini bosib, "Slaydni yashirish" bo'limini tanlang. Sizga kerak bo'limgan narsa yo'qoladi, lekin agar kerak bo'lsa, hamma narsani qaytarish mumkin.

Bu Power Point dasturida slaydlar bilan original taqdimotlar yaratish uchun ishlatiladigan algoritm.

Ko'pincha, hisobot yoki hisobot bilan taqdimot, yangi dastur yoki mahsulot taqdimoti paytida, ba'zi ma'lumotlarni jamoatchilik oldida tasavvur qilish kerak bo'ladi. Buning uchun eng mashhur dastur Microsoft PowerPoint 2016, turli effektlar bilan taqdimotlar yaratish muhitidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kimyo texnologiyalari darslik
2. Informatika va ta'lim texnologiyalari



MATEMATIKA FANIDA HAQIYAIY SONLARNI ISHLATILISHI

Zulhumor Yusupova

Namangan viloyati Norin tuman
33-maktab matematika fani o'qituvchisi
998973459867 zulxumoryusupova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola orqalimumumta'lim maktablarda haqiqiy sonlarni o'rgatish mavzusi keng yoritilgan

Kalit so'zlar: Ratsional, irratsional sonlar, son, savol javob, modeli, haqiqiy sonlar, ishlatalishi, to'g'ri chiziq, geometrik model, koordinata, to'g'ri chiziq.

Bugungi kunda aniq fanlar va tabiy fanlarga bo'lган e'tibor jadalgina o'sib bormoqda. Shunday ekan matematika faniga bo'lган qiziqish zamonaviy yoshlarimizna katta qiziqishlar uyg'otmoqda . misol uchun ratsional va irratsional sonlar birgalikda haqiqiy sonlar to'plamini hosil qiladi. Har bir haqiqiy songa koordinata to'g'ri chiziqning yagona nuqtasi mos keladi. Haqiqiy sonlar to'plami son to'g'ri chizig'i deb ham ataladi. Son to'g'ri chizig'ining geometrik modeli koordinata to'g'ri chizig'idan iboratdir. O'qituvchi haqiqiy sonlarning geometrik tasvirini ko'rsatganidan keyin savol-javob metodi orqali haqiqiy sonlarni taqqoslashni va ularning natijasi sifatida hosil qilinadigan sonli tengsizlik hamda ularning xossalari bayon qilishi maqsadga muvofiqdir. Haqiqiy sonlarni taqqoslash masalasi quyidagi ikkita ta'rif asosida hal qilinadi. Ta'rif. *a sonidan b sonini ayirganda ayirma musbat bo'lsa, u holda a soni b sonidan katta deyiladi va u quyidagicha yoziladi. $a-b>0$ bundan $a>b$ ekanini ko'rindadi.*

Ta'rif. *a sonidan b sonini ayirganda ayirma manfiy bo'lsa, u holda a soni b sonidan kichik deyiladi va u bunday yoziladi: $a-b<0$, bundan $a< b$ ekanini ko'rindadi.* Bu yerdagi $a>b$ va $a< b$ ifodalar sonli tengsizliklar deyiladi.

Sonli tengsizliklar xossalari:

- 1) agar $a > b$ bo'lsa, $b < a$ bo'ladi;
- 2) agar $a > b$ va $b < c$ bo'lsa, u holda $a < c$ bo'ladi;
- 3) agar $a > b$ bo'lsa, $a+c > b+c$ bo'ladi;
- 4) agar $a > b$ va c musbat son bo'lsa, u holda $ac > bc$

I sb o t i : $ac \sim bc$ ayirmani hosil qilamiz. $a c - b c - c (a - b)$ shartga ko'ra c musbat son va $a > b$ bo'lgani uchun $a > b$ musbat son. Ikkita musbat sonning ko'paytmasi musbat sondir, demak $c(a-b) > 0$. Shunday qilib, $ac - bc > 0$, bundan: $ac > bc$

5) agar $a > b$ la c manfiy son bo'lsa, u holda $ac < bc$ bo'ladi. Agar tengsizlikning har ikkila tomoni bir xil manfiy songa ko'paytirilsa, tengsizlikning ishorasi qarama-qarshiga o'zgaradi;

- 6) agar $a > b$ va $c > d$ bo'lsa, u holda $a+c > b+d$ bo'ladi;
- 7) agar $a > b > 0$ bo'lsa, u holda $-c < t$ bo'ladi; $a b$

8) agar $a > b X$ bo'lsa, istalgan n natural son uchun $an > bn$ tengsizlik o'rinli boiadi. Sonli oraiiqlar va ularning tasviri

Bir xil ishorali ikkita sonning yig'indisi o'sha ishorali yig'indi songa u-ndir. Bunday yig'indining modulini topish uchun qo'shiluvchilar yig'indisini topish kerak.

Masalan, $(+12) + (+8) = +20$, $(-12) + (-8) = -20$.

Turli ishorali ikkita sonning yig'indisi katta bo'lgan qo'shiluvchining ishorasi bilan bir xil ishorali sondir, bu yig'indining qiymatini topish uchun katta sondan kichik sonni ayirish va ayirma oldiga katta son ishorasini qo'yish kerak.

Masalan: $(+12) + (-8) = +12 - 8 = 4$, $(-12) + (+8) = -12 + 8 = -4$. Bir sondan ikkinchisini ayirish uchun kamayuvchiga ayiriluvchiga qarama-qarshi bo'lgan sonni qo'shish kerak. Masalan, $12 - (-8) = 12 + 8 = 20$, $12 + 8 = 12 - 8 = 4$.

Bir xil ishorali ikki sonning ko'paytmasi (bo'linmasi) musbat, har xil ishorali ikki sonning ko'paytmasi manfiy, bo'linmasi ham manfiy bo'lgan sondir. Ko'paytma (bo'linma)ning topish uchun berilgan sonlarning o'zaro ko'aytirish (bo'lish) kerak.



